

## OLTIARIQ UZUMI CHET ELLARDA HAM TANIQLI “BREND”GA AYLANGAN

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi tizimida samarali mehnat qilib, ayni paytda keksalik gashtini surayotgan soha faxriylari shu kunlarda viloyatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlar bilan tanishmoqdalar.



Xususan, prokuratura faxriylari bugun tumanda yangi o'zlashtirilgan tokzorlarda bo'lib, mazkur ob'ektda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni ko'zdan kechirdilar.

Tokzorlar orasiga ekilgan tarvuz, qovun, loviya, oshqovoq kabi mahsulotlar bugungi kunda mevaga kirib, o'z hosilini bermoqda. Tadbir ishtirokchilari bu jarayondan taajublandilar.

- Oltiariqliklar har sohada ilg'or. Buning isbotini mana, bugun yana bir bor guvohi bo'lib turibmiz. Avvallari hech narsa ekilmagan quruq yerlar ham o'zlashtirilib, ko'rkar qiyofa kasb etmoqda. Ayniqsa, uzumzorlarning barpo etilishida ham hikmat bor. Boisi Oltiariq uzumi chet ellarda ham taniqli “brend”ga aylangan. Hademay, bu yerlardagi uzumlar ham hosilga kirib, jahon bozorida xaridorgir bo'ladi, - dedi tadbir ishtirokchilari.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-12 20:32:26